O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

%A2%D0%91+%D0%A0%D0%BE%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B8___KNB_IBIS___88.36___%D0%94+93-021539/

3. Психологическая готовность к профессиональной деятельности студентов-психологов // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-k-professionalnoy-deyatelnosti-studentov-psihologov-1

4. Психологическая готовность личности к деятельности как метакатегория // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-lichnosti-k-deyatelnosti-kak-metakategoriya

5. Проблема психологической готовности к управленческой деятельности и личностно-функциональный подход к её исследованию // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problema-psihologicheskoy-gotovnosti-k-upravlencheskoy-deyatelnosti-i-lichnostno-funktsionalnyy-podhod-k-eyo-issledovaniyu

6. Tolipov U.K. Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2012; G'oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2010. URL: https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya.%201-kitob%20(E.G'oziyev).pdf

7. Психологическая готовность к профессиональной деятельности и методы её формирования // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-k-professionalnoy-deyatelnosti-i-metody-ee-formirovaniya

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

To‘raqulov U.X.
ped.fan.fals.dokt.(Phd), dotsent. O‘zMU JF

Maratova V.O.

Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. O‘zMU JF

Xolbutaeva S.O.

A.I.Gersen 2-kurs magistri.

To‘raqulova G.U.

O‘zMU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarning psixologik xususiyatlari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Ilmiy-metodik ta'minotning kognitiv, motivatsion-faoliyatli, muloqotchanlik va ijodkorlik komponentlari, shuningdek ularning talabalar shaxsini kasbiy shakllantirishdagi psixologik mexanizmlari yoritilgan. Xorij va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari asosida ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishning psixologik jihatdan asoslangan yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-metodik ta'minot, pedagogik-psixologik omillar, kasbiy tayyorgarlik, kognitiv faollik, motivatsion-faoliyatli komponent, metakompetentlik, kasbiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье представлен теоретико-методологический анализ психологических особенностей педагогико-психологических факторов, влияющих на совершенствование научно-методического обеспечения подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности. Рассмотрены когнитивный, мотивационно-деятельностный, коммуникативный и творческий компоненты научно-методического обеспечения, а также их психологические механизмы в профессиональном становлении личности студента.

Ключевые слова: научно-методическое обеспечение, педагогико-психологические факторы, профессиональная готовность, когнитивная активность, мотивационно-деятельностный компонент, метакомпетентность.

Annotation: This article presents a theoretical and methodological analysis of the psychological characteristics of pedagogical-psychological factors that influence the improvement of the scientific-methodological support for preparing future teachers for professional activity. The cognitive, motivational-activity, communicative and creative components of scientific-methodological support are examined, along with their psychological mechanisms in the professional development of a student's personality.

Keywords: scientific-methodological support, pedagogical-psychological factors, professional readiness, cognitive activity, motivational-activity component, meta-competence.

Kirish: Oliy pedagogik ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning sifati bevosita ta'lim jarayonining ilmiy-metodik ta'minoti darajasiga bog'liqdir. Ilmiy-metodik ta'minot deganda o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, didaktik vositalar, baholash mezonlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmui tushuniladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ilmiy-metodik ta'minotning samaradorligi faqat uning mazmuniy-tarkibiy sifatiga emas, balki uni ishlab chiqish va qo'llashda talabalar shaxsining psixologik xususiyatlarini kognitiv, motivatsion, kommunikativ va ijodiy salohiyatini hisobga oluvchi pedagogik-psixologik omillar tizimiga ham bog'liqdir.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, ilmiy-metodik materiallar ko'pincha faqat mazmuniy jihatdan takomillashtiriladi, ammo ularning talabalar

psixikasiga, bilish faolligiga, motivatsiyasiga va kasbiy shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlari yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Shu sababli ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishning pedagogik-psixologik omillarini va ularning psixologik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlardan yoritilgan. Xususan, kasbiy rivojlanishning shaxsiy-psixologik mexanizmlari borasida L.M. Mitinaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra kasbiy rivojlanish bo'lajak pedagogning ichki dunyosini faol va sifatli o'zgartirish jarayoni sifatida talqin etiladi va bu jarayonning muhim omillaridan biri professional yo'naltirilganlik hisoblanadi [1].

O'quv usullari (an'anaviy va noan'anaviy metodlar)ning kognitiv, faoliyatli, muloqotchanlik va ijodkorlik kabi komponentlari, ularga tegishli pedagogik-psixologik omillar, shart-sharoitlar hamda baholash mezonlari orqali o'qitish metodikasini mazmunan takomillashtirish masalalari rasmiy ilmiy-tadqiqot natijalarida ham o'z aksini topgan [2].

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi va ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, shuningdek axborot-ta'lim muhiti sharoitida metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini yaxshilash borasidagi tadqiqotlar mahalliy pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri sifatida rivojlanmoqda [3]. Bunda an'anaviy, masofaviy va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion-didaktik tizimlarni takomillashtirish va reflektiv yondashuv asosida talabalarning kollaborativ kompetentligini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

N.M. Egamberdieva o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishdagi psixologik to'siqlarni tahlil qilib, pedagog kadrlarning o'z faoliyatiga nisbatan ijtimoiy yo'naltirilmaganligi, kasbiy-amaliy tayyorgarlikning bir tomonlamaligi va cheklanganligi, shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undovchi omillarning yetishmasligi hamda motivatsiya darajasining pastligini asosiy psixologik muammolar sifatida qayd etgan [4].

Mavzuning o'zbek psixologiya fanidagi nazariy-metodologik negizini E. G'oziyevning "Umumiy psixologiya" va "Pedagogik psixologiya" asarlari tashkil etadi, unda shaxs faoliyati, bilish jarayonlari va ularning kasbiy shakllanishga ta'siri ilmiy asoslangan [5]. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining nazariy, psixologik va amaliy tayyorgarlik mezonlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda talaba-respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, umumlashtirish va sintez qilish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tizimli yondashuv asosida, ya'ni ularning kognitiv, motivatsion-faoliyatli, kommunikativ va ijodiy tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

1. Ilmiy-metodik ta'minotning psixologik-pedagogik mohiyati

Ilmiy-metodik ta'minot bu ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi o'quv-uslubiy materiallar, didaktik vositalar va texnologiyalar majmui bo'lib, uning psixologik-pedagogik mohiyati shundan iboratki, u nafaqat bilim uzatish vositasi, balki talaba shaxsining kasbiy-psixologik rivojlanishini ta'minlovchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish jarayoni ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib borilishi lozim: mazmuniy-uslubiy yangilanish va psixologik jihatdan asoslanganlikni ta'minlash.

2. Ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtiruvchi pedagogik-psixologik omillar

O'tkazilgan tahlil natijasida ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik-psixologik omillar va ularning psixologik xususiyatlari quyidagicha tizimlashtirildi:

kognitiv omil - o'quv-metodik materiallarning talabalarning bilish faolligini, mustaqil va tanqidiy fikrlashini, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganlik darajasi;

motivatsion-faoliyatli omil - metodik ta'minotning talabalarni amaliy-kasbiy faoliyatga faol jalb etish, ularda ichki kasbiy qiziqish, maqsadga yo'nalganlik va ijodiy faollikni uyg'otish salohiyati;

kommunikativ omil - ta'lim jarayonida pedagog-talaba, talaba-talaba o'rtasidagi psixologik hamkorlik va ishonch muhitini shakllantirish, guruh ichida konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati;

emotsional-irodaviy omil - metodik materiallarning talabalarda kasbiy vaziyatlarga nisbatan emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik va o'z-o'zini nazorat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilish darajasi;

ijodiy-innovatsion omil - ilmiy-metodik materiallarning nostandart pedagogik vaziyatlarni yechishga, ijodiy pedagogik tafakkurni va innovatsion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

3. Pedagogik-psixologik omillarning kasbiy shakllanish jarayonidagi o'rni

L.M. Mitina kontseptsiyasiga muvofiq, bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqishni taqozo etadi [1]. Bu esa ilmiy-metodik ta'minotni ishlab chiqishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ustuvor qilib qo'yadi: metodik materiallar nafaqat

kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki talabaning kasbiy "Men" obrazini, professional yo'naltirilganligini va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini kuchaytirishga ham xizmat qilishi lozim.

N.M. Egamberdieva tadqiqotida qayd etilgan psixologik to'siqlar — motivatsiya darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning bir tomonlamaligi, shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undovchi omillarning yetishmasligi — aynan ilmiy-metodik ta'minotning motivatsion-faoliyatli komponenti yetarlicha ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi [4]. Bu esa metodik ta'minotni takomillashtirishda talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini, ularning kasbiy qiziqishlari va qadriyatlar tizimini hisobga olish zarurligini isbotlaydi.

Shuningdek, axborot-ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ilmiy-metodik ta'minot raqamli ta'lim texnologiyalari, masofaviy va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini psixologik jihatdan asoslangan tarzda birlashtirishi zarur [3]. Bunda o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodik vositalarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

4. Ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari

O'tkazilgan tahlil asosida ilmiy-metodik ta'minotni pedagogik-psixologik jihatdan takomillashtirishning quyidagi amaliy yo'nalishlari taklif etiladi:

metodik materiallarni ishlab chiqishda talabalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini, kognitiv uslublarini hisobga olish;

o'quv-metodik qo'llanmalarga motivatsion-qadriyat yo'naltirilgan topshiriqlar va kasbiy vaziyatli masalalarni kiritish;

ilmiy-metodik ta'minotga refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini integratsiya qilish;

raqamli ta'lim texnologiyalari asosida interaktiv, psixologik jihatdan asoslangan didaktik vositalarni yaratish;

metodik ta'minotni ishlab chiqish jarayoniga amaliyotchi psixologlar va pedagoglarni hamkorlikda jalb etish orqali uning ilmiy asoslanganligini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning samaradorligi mazmuniy-uslubiy yangilanish bilan bir qatorda talabalar shaxsining kognitiv, motivatsion, kommunikativ, emotsional-irodaviy va ijodiy-psixologik xususiyatlarini har tomonlama hisobga oluvchi pedagogik-psixologik omillar tizimini ilmiy asoslashga bog'liqdir. Ilmiy-metodik ta'minotni ishlab chiqish va qo'llashda shaxsga yo'naltirilgan, psixologik jihatdan asoslangan yondashuvni joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan keyingi empirik tadqiqotlar xususan, turli yo'nalish talabalari o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma va

eksperimental tekshiruvlar taklif etilgan omillarning amaliy samaradorligini statistik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Niyazova N.A., Himmataliyev D.O. Integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash (L.M. Mitina kontseptsiyasi asosida). URL: https://staff.tiiame.uz/storage/users/164/books/0KkoVmq6U8zVYjUAklphwFQc1b86Qj5CWcjx77vt.pdf

2. Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogik-psixologik omillari // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi. URL: https://oak.uz/pages/27945

3. Bo'lajak pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirish // Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi Ilmiy kengash. URL: https://lib.bimm.uz/items/download/9699

4. Egamberdieva N.M. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ituvchilarda-izhtimoiy-pedagogik-kompetenitlikni-rivozhlantirish

5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. URL: https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya.%201-kitob%20(E.G'oziyev).pdf

6. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining xususiyatlari // ResearchGate, 2021. URL: https://www.researchgate.net/publication/353802091_Bulazak_ukituvcilarni_iztimoij-pedagogik_faoliatga_tajerlas_zaraenining_hususiatlari

7. Hozirgi zamon pedagogini kasbiy shakllantirish (o'quv-uslubiy qo'llanma). Ziyonet elektron kutubxonasi. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/473012/5b715b580648e.pdf

8. Salimova S.F. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalari shakllanganlik darajasini baholashning o'ziga xos jihatlari // TIIAME ilmiy jurnali. URL: https://staff.tiiame.uz/storage/users/786/articles/WEklWhSJolmfHqOlFJoIrcz0ImOQiNRwc8egUB5r.pdf

9. Didaktik ta'minot va kasbiy-pedagogik tayyorgarlik: modul dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi. URL: https://lib.bimm.uz/items/download/191